

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING HUQUQIY VA IJTIMOY JIHATDAN HIMOYA QILINISHI

S.Xamdamova

Toshkent davlat agrar universiteti

Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i

Tel.: +998999829988

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17406602>

Annotatsiya: Zamonaviy davlat boshqaruvi samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri bu — davlat fuqarolik xizmati tizimining rivojlanishi hisoblanadi. Davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi haqida ma'lumotlar keltirigan.

Kalit so'zlar: Davlat fuqarolik xizmati, rag'batlantirish, "hrm.args.uz" elektron tizimi tarkibidagi "Xizmat safari", "El-yurt umidi" jamg'armasi.

Davlatimizda mustaqillik yillaridan boshlab bu sohada izchil islohotlarni amalga oshirilib kelinmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi davlat xizmatini rivojlantirish, bunda sifat va samaradorlikni oshirish, tizimga har tomonlama malakali, bilimli kadrlarni jalb qilish, davlat fuqarolik xizmati tizimining birligi va barqarorligi, qonuniylik, adolat, xalqqa xizmat qilish, davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi javobgarligi, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligiga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustda "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-sonli qabul qilingan Qonun davlat fuqarolik xizmati sohasidagi munosabatlarni, ya'ni davlat organlari va tashkilotlari o'rta bo'g'in xodimlarining mehnatini tartibga solishda muxim ahamiyat kasb etayotganini aytishimiz mumkin.

Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-95-son Farmoni qabul qilinganligi davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish sohasida qilinayotgan asosiy amaliy chora tadbirlar sifatida keltirish mumkin. Farmonga ko'ra, 2025-2026-yillarda davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi hamda "Yel-yurt umidi" jamg'armasining doimiy hamkorligi asosida davlat xizmatida kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimi joriy etilishi belgilab berildi. Shu jumladan, 2026-yil 1-yanvardan davlat xizmatiga birinchi marta qabul qilingan davlat xizmatchilari bilan mehnat shartnomasi dastlab bir yil muddatga tuzilishi hamda keyinchalik faoliyatining ijobiy natijalariga ko'ra mehnat shartnomasi nomuayyan muddatga uzaytirilishi kabi o'zgartirishlar kiritildi.

2025-yil 1-avgustdan respublika, hududiy va tuman (shahar) darajasidagi tashkilotlardagi lavozimlarning boshqaruv va yordamchi guruhlari uchun tanlovlar faqatgina Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona portali orqali o'tkazilish tizimi joriy etilmoqda. 2025-yil 1-oktabrdan davlat xizmatchilarining xorijiy va ichki xizmat safarlarini tashkil etish, hisobini yuritish va tahlilini olib borish "hrm.args.uz" elektron tizimi tarkibidagi "Xizmat safari" yagona moduli orqali amalga oshirilishi belgilab berildi.

“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasiga asosan, davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi asosiy prinsiplardan biri hisoblanadi.

Xususan, Mehnat kodeksiga muvofiq amalda intizomiy jazosi bo‘lgan xodimga nisbatan rag‘batlantirish choralari, shu jumladan mehnatga haq to‘lash tizimiga kirmaydigan va mehnat natijalariga asoslanmagan mukofotlar ham (bayramlar, shu jumladan kasb bayramlari, yubileylar munosabati bilan va hokazolar) qo‘llanilmaydi.

Biroq, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 44-moddasida davlat fuqarolik xizmatchisiga qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan rag‘batlantirish turlari keltirilgan, jumladan:

- lavozim maoshiga qo‘shimcha ustamalar;
- pul mukofoti;
- navbatdan tashqari malaka darajasini berish;
- minnatdorchilik e‘lon qilish;
- qimmatbaho sovg‘a, esdalik yoki ko‘krak nishoni yoxud yorliq bilan mukofotlash.

E‘tiborli jihati shundaki, lavozim maoshiga qo‘shimcha ustama to‘lash ham davlat fuqarolik xizmatchisi uchun rag‘batlantirish choralaridan biri sifatida ko‘rsatilgan.

“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 47-moddasiga ko‘ra, Davlat fuqarolik xizmatchisining intizomiy javobgarlikka tortilishi unga nisbatan rag‘batlantirish choralari qo‘llanilishini bekor qilmaydi- deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Demak, hayfsan, jarima va boshqa intizomiy qo‘llanilgan davlat fuqarolik xizmatchisiga Qonunning 44-moddasidagi rag‘batlantirish turlaridan birini qo‘llashga to‘sqinlik qilmaydi xodim ustama ham, pul mukofotini ham olishi mumkin.

Bular, davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan haqiqiy rag‘bat, qo‘llov bo‘lgan desak bo‘ladi, lekin buni xis qilish, suiiste‘mol qilmaslik har kimning vijdoniga bog‘liq bo‘ladi.

Yuqoridagi holatdan kelib chiqadiki, hayfsan, jarima va boshqa intizomiy jazo qo‘llanilgan davlat fuqarolik xizmatchisiga Qonunning 44-moddasidagi rag‘batlantirish turlaridan birini qo‘llashga to‘sqinlik qilmaydi xodim ustama ham, pul mukofotini ham olishi mumkin degan qoidani angalatadi. Bu esa, davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan haqiqiy rag‘bat davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi demakdir.

Misol uchun, hokim yordamchisiga intizomiy jazosi borligini sabab qilib, ustamalar bermaslik noqonuniydir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19 iyundagi PF-95-sonli Farmoni bilan hokim yordamchilari ham davlat fuqarolik xizmatchilari hisoblanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonunning 44-moddasiga asosan davlat fuqarolik xizmatchisining lavozim maoshiga ustamalar rag‘batlantirish choralari ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Bundan tashqari, mazkur Qonunning 47-moddasida “davlat fuqarolik xizmatchisining intizomiy javobgarlikka tortilishi unga nisbatan rag‘batlantirish choralari qo‘llanilishini bekor qilmaydi” – deb ko‘rsatilgan.

Yuqoridagi qoidalarga ko‘ra, intizomiy jazosi borligini vaj qilib, hokim yordamchisini ustama va boshqa rag‘batlantirish choralaridan mahrum qilinishi g‘ayriqonuniy hisoblanadi.

Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish, davlat xizmatchilari ishini natijadorlikka yo‘naltirish, aholining davlat xizmatiga bo‘lgan ishonchini yanada oshirish, sohaga istiqbolli kadrlarni jalb qilish va ularni professional mutaxassis etib tayyorlashning samarali tizimini joriy qilish, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun

hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida davlat organlarida kadrlar bilan ishlashning zamonaviy usul va mexanizmlari hamda yaxlit tizimini joriy etish, davlat organlarida salohiyatli va istiqbolli rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda yangi avlod rahbar kadrlarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, davlat xizmatiga xotin-qizlarni keng jalb qilish uchun ularning sohaga bo‘lgan qiziqishi, manfaatdorligi va ishonchini oshirish, Davlat fuqarolik xizmatini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish, davlat xizmatida kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini joriy etish, davlat xizmatiga birinchi marta qabul qilingan davlat xizmatchilari majburiy “Davlat xizmatiga kirish” maxsus kurslarini va keyinchalik har uch yilda kamida bir marotaba malaka oshirish kurslarini o‘tashi hamda mazkur kurslarning yakunlari bo‘yicha ularning nazariy bilim va ko‘nikmalari diagnostikadan o‘tkazilishi, vazirlik va idoralar tomonidan xodimlarni xorijda o‘qitish, tayyorlash, malakasini oshirish hamda stajirovkasini tashkil etish, shu jumladan, grantlar yoki donorlar mablag‘lari hisobiga amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida davlat xizmatchilarini o‘qitish, tayyorlash, malakasini oshirish hamda stajirovkasi bilan bog‘liq tadbirlar majburiy tartibda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan kelishilgandan so‘ng amalga oshirilishi kabi tizimlar belgilandi.

Davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va kiritilayotgan o‘zgarishlar mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlar davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish, xizmat sifatini yaxshilash va aholining davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/6445145>
2. “Davlat fuqarolik xizmati” to‘g‘risidagi qonun <https://lex.uz/uz/docs/6145972>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-95-son farmoni <https://www.lex.uz/docs/7587464>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi
5. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni <https://www.lex.uz/docs/6600413#6605157>